



Termiz Shahar Jamoat Transportida Yo‘lovchi Tashish Sifatini Takomillashtirish (15-Yo‘nalishli Avtobus Misolida)

Abdiqadirov Shavkat Abdihomidovich

Katta o‘qituvchi, PhD, Termiz muhandislik-texnologiya instituti

shavkatabdiqodirov@mail.ru

Annotatsiya : Mazkur maqolada Termiz shahrida jamoat transportida yo‘lovchilarni tashishda kuzatiladigan umumiy muammolar, yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning samaradorligini oshirish yo‘llari, xususan, bekatlarning o‘tkazish qobiliyatini oshirish asosida yo‘lovchilarga qulayliklar yaratish haqida so‘z yuritilgan.


Bu borada yo‘lovchilarni tashishda yangicha va zamoviy texnologiyalarni ishlab chiqish, ushbu faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: transport, yo‘lovchilar, geo-tracker, ratsional, innovatsion bekatlar.

KIRISH Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi soni va harakatchanligi ortib borayotganligi sababli, yo‘lovchilarga sifatli, xavfsiz, ishonchli xizmat ko‘rsatish asosida jamoat transporti tizimini samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Vohamizda kundan-kunga shahar aholisining avtotransport vositalariga bo‘lgan talabi va ehtiyoji ortib borayotgan bir vaqtda, shaharlarda jamoat transporti xizmati barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jamoat transportining ishini tashkil etishdagi ayrim kamchiliklar va yo‘nalishlarda sifatli xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan bee‘tiborlik yo‘lovchilar uchun noqulayliklarga sabab bo‘ladi. Jamoat transportida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun avvalo yo‘nalishlardagi yo‘lovchilar oqimi kuzatilishi, olingan ma‘lumotlar tahlil etilishi lozim bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Surxondaryo viloyat Statistika boshqarmasining 2018-2022-yillar oralig‘ida Surxondaryoda yo‘lovchilarni tashish sohasida ro‘y bergan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, tahlil 2018-2022-yillar oralig‘ida viloyatda yo‘lovchilarni tashishda o‘shish bo‘lganligini ko‘rsatdi.



1.1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2018-2022-yillarda avtotransportda tashilgan yo'lovchilar ko'rsatkichlari, ming kishi

Xususan, 2021-yilda avtotransport vositalari orqali 265,1 million kishi o'z manziliga yetkazilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 270 million kishidan oshiqroqni tashkil etdi. 2022-yilda yo'lovchi tashishda avtomobil transportining ulushi 97,5 foizni tashkil qilgan. Agar 2018-yilda 257,4 million kishi manzilga yetkazilgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 270 milliondan ortiq kishini tashkil qilgan.

2023-yilda Surxondaryo viloyati bo'yicha jami doimiy aholi soni 2 million 821 ming 900 kishini tashkil etmoqda. Aholi sonining borgan sari oshib borayotganligini inobatga olib 2026-yilgacha yo'lovchi tashish xizmatlarini rivojlantirish maqsadida hududda yangi innovatsion bekatlar xizmatlarini yo'lga qo'yish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Sinov tadqiqoti sifatida Termiz shahridagi 15-sonli jamoat transporti tanlandi. Ushbu yo'nalish avtobusi Termiz shahar ichki avtobus yo'nalishi hisoblanib, umumiy uzunligi 11 kmni tashkil etadi. Yo'nalish 2018-yildan buyon shahar aholisiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda mazkur yo'nalishida 15 ta ISUZI rusumli avtobus faoliyat olib bormoqda.

Avtobusning Termiz Avtoshohbekatidan - "Shimoliy" shohbekatga qadar yetib kelishda sarflaydigan vaqtini aniqlash bo'yicha amaliy tajriba o'tkazildi. Bunda jamoat transportining harakat ko'rsatkichlari zamonaviy "Geo Tracker" dasturi asosida amalga oshirildi va har bir to'xtalishlar bo'yicha sarflaydigan vaqti o'rganilib tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI Shaharlarda avtobus bekatlarini qulay va ratsional joylashtirish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Imkon qadar avtobus bekatlari shahar yo'llarida harakatlanayotgan transport vositalariga halaqit tug'dirmasligi lozim.



1.2-rasm. “Termiz” Avtoshohbekatidan “Shimoliy” shohbekatgacha jamoat transportining dastlabki qatnovdagi ko‘rsatkich natijalari.

Tahlildan ma’lumki avtobus dastlabki ya’ni joriy holatdagi harakat vaqtida to‘xtashlar soni 34ta yetdi. Natijada avtobus yo‘nalish bo‘ylab harakatlanishiga ko‘proq vaqt sarfladi, bu o‘z navbatida harakat tezligining pasayishiga olib keldi. Yo‘nalishda yo‘lovchilarni avtobusga chiqarish va tushirishlari uchun bir qatnov davomida (42 daqiqa 21 soniya) 0.7 soat vaqt sarfladi.



1.3-rasm. “Termiz” Avtoshohbekatidan “Shimoliy” shohbekatgacha jamoat transportining sinov qatnovidagi keyingi ko‘rsatkich natijalari.

Sinovning keyingi bosqichida geo-tracker ilovasi yordamida yo‘lovchilarning maksimal va minimal chiqib-tushishlari hisobga olinib, belgilangan standartlar asosida bekatlar ratsional joylashtirildi. Avtobus harakat vaqtida faqatgina belgilangan bekatlardagina to‘xtab harakatlandi hamda 17 marotaba to‘xtalishlarni amalga oshirdi. Sinov natijasida (Avtobus 37 daqiqa 09 soniya) 0,6 soatda manzilga yetib keldi va bu ko‘rsatkichi bilan dastlabki holatdan 0,1 soat tejab, manzilga ertaroq yetib keldi.



1.1-Jadval

Olingan barcha ma'lumotlarni o'rtacha qiymatini olib dastlabki va keyingi ko'rsatkichlarni taqqoslaymiz

Texnik ko'rsatkichlar	dastlabki holat	keyingi holat
Yurgan masofasi	11,7 km	11,7 km
Harakatdagi vaqti	00:42:21 soat	00:37:09 soat
Maksimal tezligi	62 km/soat	61 km/soat
O'rtacha tezlik	16,52 km/soat	18,96 km/soat
Harakatdagi o'rtacha tezlik	17,94 km/soat	19,36 km/soat
To'xtashlar soni	34 ta	17 ta
Har bir to'xtashda sarflagan vaqti	10-50 sekund	10-50 sekund

Jadvaldan ko'rinib turib tiki taqqoslash natijasida hozirgi vaqtda avtobuslarning ko'p to'xtashi avtobus va yo'lovchilar uchun salbiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ko'p to'xtashlar o'z navbatida ko'p vaqt sarflashga hamda tezlikni kamayishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot ishi davomida to'xtashlar sonini 34 tadan 17 taga qisqartirish orqali 0,1 soat vaqtni qisqartirishga erishildi, bu esa o'z navbatida jamoat transportning o'rtacha tezligini ham sezilardi darajada oshirdi.

Adabiyotlar:

1. Sh A A. et al. DETERMINATION OF THE AMOUNT OF RADON-222 BY RADIOMETRIC METHOD IN THE ATMOSPHERIC AIR OF THE CITY OF TERMEZ, SURKHONDARYA REGION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – T. 13.
2. TURAEV K. K. et al. Determination of the presence of radionuclide radon-222 in the atmospheric air of the Surkhondarya region of the Republic of Uzbekistan //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9). – 2021. – С. 345-349.
3. Shavkat A. et al. Radiometric determination of radon-222 in the atmospheric air of the city of termeza, republic of uzbekistan //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2020. – T. 7. – №. 11. – С. 397-403.
4. Amonovich U. I., Kuziyev A. U., Shamsutdin o'g'li M. A. YO'LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 109-113.



-
5. Shamsutdin M. A. JAMOAT TRANSPORTI FAOLIYATIDA AVTOBUS BEKATLARINING O ‘TKAZISH QOBILIYATINI OSHIRISH ASOSIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH: JAMOAT TRANSPORTI FAOLIYATIDA AVTOBUS BEKATLARINING O ‘TKAZISH QOBILIYATINI OSHIRISH ASOSIDA SAMARADORLIKKA ERISHISH //“Qurilish va ta’lim” ilmiy jurnali. – 2023. – T. 5. – №. 2. – C. 163-166.
 6. <http://www.stat.uz>